



AHOLI UMUMIY DAROMADLARI

dastlabki ma'lumotlar

2017 yil yanvar-dekabr holatiga



Aholi farovonligi va turmush darajasida asosiy omillardan biri aholining doimiy daromad manbaiga ega bo`lishi hisoblanadi


Aholining umumiylariga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi, hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi hususiyatga ega bo`lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig`idagi davrda uy ho`jaligi yoki uning alohida a`zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi.

2017 yil yanvar-dekabr holatiga aholi umumiylariga pul daromadlari 186,2 trln. so`mni, bir kishiga o`rtacha hisoblaganda 5,8 mln. so`mni tashkil etdi.

Aholi umumiylarining real o'sish sur'atlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,3 foizni tashkil etdi.



2017 yilning yanvar-dekabr holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga o`rtacha umumiylariga pul daromadlari (ming so'mda)




Aholi umumiylar daromadlari

Aholi jon boshiga o`rtacha umumiylar daromadlari bo`yicha Toshkent shahrida (12,7 mln.so'm) hamda Navoiy (9,1 mln.so'm), Buxoro (6,7 mln.so'm), Toshkent (6,1 mln.so'm) va Sirdaryo (5,8 mln.so'm) viloyatlarida o`rtacha respublika darajasidan yuqori ko`rsatkichlari qayd etilganligi kuzatildi

Aholi jon boshiga umumiylar daromadlarning eng yuqori real o'sish sur'ati Xorazm viloyatiga (16,8 foiz) to`g`ri keladi. Shuningdek, Andijon (14,7 foiz), Surxondaryo (14,5 foiz), Namangan (13,7 foiz), Samarqand viloyatlarida (11,5 foiz) hamda Qoraqalpog`iston Respublikasida (11,1 foiz) aholi jon boshiga umumiylar daromad ko`rsatkichlarining real o'sish sur'atlari respublika darajasidan yuqorini tashkil etgan.


O'zbekiston Respublikasi hududlari bo`yicha aholi jon boshiga umumiylar daromadlarning real o'sish sur'ati, foizda



Aholi umumi daromadlari

Aholi umumi daromadlari tarkibi

Aholining umumi daromadlari hajmining sezilarli darajada o'sishi asosan umumi daromadlar tarkibida 68,8 foiz ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo`lishdan olingan daromadlar) va 24,8 foizni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o`zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.



Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

Aholi umumi daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar sezilarli ulushni tashkil etadi. Ushbu daromadlarning umumi daromadlar tarkibidagi ulushi 70 foiz atrofida. 2017 yilning dastlabki yakunlariga ko'ra mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 2016 yilning mos davriga nisbatan 113,7 foizni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning aholi umumi daromadlari tarkibidagi bunday ulushi va o'sish sur'ati aholi umumi daromadlarining 10,2 foizga o'sishini ta'minladi.


O'z navbatida, mehnat faoliyatidan olingan daromadlar, yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo`lishdan olingan daromadlardan shakllanadi.

Aholi umumiylar daromadlari

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida yollanma ishchilarning daromadlari 12,8 foizga oshdi va aholi umumiylar daromadlaridagi ulushi 34,3 foizni tashkil etdi.

Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o'sishi Andijon viloyati (116,5 foiz) va Toshkent shahri (115,5 foiz), shuningdek, Toshkent (113,7 foiz), Jizzax (113,6 foiz), Xorazm (113,3 foiz) va Namangan (113,2 foiz) viloyatlarida qayd etildi.

2017 yilning yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)




Shuningdek, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning keyingi asosiy manbai mustaqil ravishda band bo`lishdan olingan daromadlar hisoblanadi. Mazkur sohaga asosan aholining iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi yakka tartibdagagi tadbirkorlik faoliyati kiradi.

Aholi umumiylar daromadlari

2017 yil yanvar-dekabr oylarida mustaqil ravishda band bo`lishdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 114,6 foizni tashkil etdi. Aholi umumiylar daromadlari hajmida ushbu daromad manbai katta ahamiyatga ega bo`lib, uning ulushi 34,5 foizni tashkil etdi.

Mustaqil ravishda band bo`lishdan olingan daromadlar egallagan ulushiga ko`ra aholi jami daromadlariga sezilarli ta'sir ko`rsatadi. Mustaqil ravishda band bo`lishdan olingan daromadlarning 1 foizga o'sishi umumiylar daromadlar hajmining 0,37 foizga o'sishiga olib keladi.

Hududlar bo'yicha umumiylar daromadlar tarkibida mustaqil ravishda band bo`lishdan olingan daromadlarning ulushi, foizda



Hududlarda mustaqil ravishda band bo`lishdan olingan daromadlarning ulushi turlichaligini 18 foizdan (Toshkent shahrida) 42,8 foizgacha (Jizzax viloyatida) o'zgarib turadi. Mustaqil ravishda band bo`lishdan olingan daromadlarning uchdan bir qismi (32,3 foizi) Samarqand (11,1 foiz), Toshkent (11,0 foiz) va Andijon (10,2 foiz) viloyatlari hissasiga to`g`ri keladi.

Aholi umumiylar daromadlari

Shuningdek, aholining daromad manbalaridan biri bu mol-mulkdan olingan daromadlar hisoblanadi. 2017 yilning dastlabki yakunlariga ko'ra, aholining mol-mulkdan olgan daromadlari 7,9 trln.so'mni tashkil qildi. 2016 yilga nisbatan o'sish sur'ati esa 137,9 foizni tashkil etdi. Aholining umumiylar daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 4,2 foizni tashkil etdi.


Mol-mulkdan olingan daromadlar, o`z navbatida, foizlar, dividendlar, mualliflik haqi va boshqa mulkiy daromadlardan iborat.

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida boshqa mulkiy daromadlar asosiy ulushga ega bo'lib, uning ulushi 59,5 foizni tashkil qildi. Keyingi o'rnlarda dividendlar - 28,4 foizni, obligatsiyalar, depozitlar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlar va mualliflik haqi - 12,1 foizni tashkil qildi.

Aholi umumiylar daromadlari hajmining o`zgarishiga mol-mulkdan olingan daromadlarning ta`siri juda kam. Agar kuzatilayotgan davrda aholi umumiylar daromadlari hajmining o'sish sur'ati 22,8 foizni tashkil etgan bo`lsa, shundan 1,4 foizi mol-mulkdan olingan daromadlar hissasiga to`g`ri keladi.

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi Toshkent shahriga hissasiga to`g`ri kelib, 69,1 foizni tashkil etdi. Keyingi yuqori ulushga ega bo`lganlari Toshkent (6,9 foiz), Farg`ona (3,9 foiz) va Samarqand (3,6 foiz) viloyatlari hisoblanadi.


Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibi, foizda



Aholi umumiylar daromadlari

Aholining umumiylar daromadlari tarkibida transfertlardan olinan daromadlar ham muhim ahamiyatga ega. 2017 yilning dastlabki yakunlariga ko'ra o'tgan yilning mos davriga nisbatan transfertlardan olinan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 155,9 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, ushbu davrda aholining umumiylar daromadlari hajmida transfertlarning ulushi 5,3 foiz punktga oshdi va 24,8 foizni tashkil etdi. Joriy davrda ijtimoiy transfertlarning o'sish sur'ati 114,5 foizni tashkil etdi.

Ijtimoiy transfertlarning turlari bo'yicha o'sish sur'ati, foizda



Ijtimoiy transfertlarning o'sishiga uning tarkibida asosiy ulushga, yani 84 foizga ega bo`lgan pensiyalar ta'sir ko'rsatdi. 2016 yil mos davri ma'lumotlari bilan taqqoslaganda pensiyalarning o'sish sur'ati 114,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan davr mobaynida pensiya, nafaqa va stipendiyalarning o'zgarishi aholi umumiylar daromadlarining 1,8 foizga o'sish imkonini berdi.

**Davlat statistika qo'mitasi
Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari
statistikasi boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Xakimov
(71) 230-81-66